# O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
# “Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi”ning 2023-2024 o’quv yil
# HISOBOTI

| № | Amalga oshiriladigan ishlar mazmuni | Ijro mexanizmi | Ijrosi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarning qisqacha mazmuni |
|---|---|---|---|
| 1. | O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti (O‘zDSMI) tarkibidagi ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limining yangi ish rejasini tayyorlash va tasdiqlash. | Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi ish rejasi O‘zDSMI rektori tomonidan tasdiqlanadi. | Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi tomonidan ish reja shakillantirilib, institut rektori tomonidan tasdiqlandi. |
| 2. | Ta’lim sifatini yaxshilashga doir yangidan qabul qilinayotgan meyoriy-huquqiy hujjatlar bazasini yangilab borish, ularning mazmunini o‘rganish va bo‘lim faoliyatini ushbu hujjatlar asosida tashkil etish | Ta’lim sifatini yaxshilashga doir meyoriy -huquqiy hujjatlar o‘rganiladi va elektron bazasi shakllantiriladi. | Ta’lim sifatini yaxshilashga doir yangidan qabul qilinayotgan meyoriy-huquqiy hujjatlar bazasini yangilab borish, ularning mazmunini o‘rganish va bo‘lim faoliyatini ushbu hujjatlar asosida tashkil etilgan hamda elektron ba’zasi yaratilgan yillar kesimida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan 2018 yil 9 yanvardagi 89-01-107 sonli xati bilan ish faoliyatida foydalanish uchun tavsiya etilgan normativ-huquqiy hujjatlarni hamda ularga qo‘shimcha tarzda madaniyat va san’at sohasini rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi prezidenti tomonidan imzolangan farmon, qarorlar va farmoyishlar, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlarini elektron va qog‘oz nusxalari yaratilib, bo‘limda ularning banki jamlanmoqda hamda ushbu hujjatlardan belgilangan vazifalar tegishliligiga ko‘ra ta’lim sifatini yaxshilashda keng foydalanilmoqda. |
| 3. | Institutda o‘quv jarayoni DTS, malaka talablari, o‘quv rejalari, fan dasturlari asosida olib borilishini o‘rganib borish. | Me’yoriy hujjatlar asosida ta’lim jarayonining tashkil qilinganligi, ularning o‘zaro mantiqiy mosligi, fan | Me’yoriy hujjatlar asosida ta’lim jarayonining tashkil qilinganligi, hamda o‘zaro mantiqiy mosligi, fan dasturlarida fanning maqsad va vazifalari aniq |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | dasturlarida fanning maqsad va vazifalari aniq yoritilganligi, mashg‘ulotlar jarayonida qo‘llanayotgan pedagogik texnologiyalar metodlar va usullarning mavzularga hamda talabalarning ehtiyojlariga mosligi tahlil qilinadi. Aniqlangan kamchilik va muammolarni bartaraf etish bo‘yicha belgilangan chora –tadbirlarning ijrosi nazoratga olinadi. | yoritilganligi, mashg‘ulotlar jarayonida qo‘llanayotgan pedagogik texnologiyalar metodlar va usullarning mavzularga oid hamda talabalarning ehtiyojlariga mosligi tahlil qilinib. boriladi. Aniqlangan kamchilik va muammolarni bartaraf etish bo‘yicha ko’rsatilgan kamchilikar rektorlik yig’ilishida hisobot berib boriladi. |
| **4.** | OTMlar reytingini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomiga muvofiq O’zbekiston davlat san’at va madaniyat institutini 2023-yilgi reytingini ma’lumotlarini Oliy ta’lim va innovatsiyalar vazirligiga taqdim etish.<br>2023 yilda institut reytingini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni shakllantirish. Kafedralar kesimida rektor va soxa prorektorlari ishtirokida uchrashuvlar o‘tkazib borish. | Oliy ta’lim va innovatsiyalar vazirligi tomonidan taqdim qilingan OTM reytingini aniqlash to‘g‘risidagi ma’lumotlar ba’zasini xaqiqiy holatini shakllantirish hamda o‘z vaqtida Oliy ta’lim va innovatsiyalar vazirligiga tavsiya qilish.<br><br>O’ZDSMI bo‘yicha fakultetlar va kafedralar kesimida reyting talablarini bajarilishini aniqlash, natijalarini kafedralar kesimida rektor va soxa prorektorlari bilan uchrashuvlarda muxokama qilib borish. | Reytingini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomiga muvofiq O’zbekiston davlat san’at va madaniyat institutini 2023- yilgi reytingini ma’lumotlarini Oliy ta’lim va innovatsiyalar vazirligiga taqdim etishga tayyor holatga keltirildi. |
| **5.** | Professor–o‘qituvchilar tomonidan dars mashg‘ulotlarining o‘tkazilish holatini tahliliy o‘rganish | Tajribali mutaxassislarni jalb qilgan holda o‘quv yili davomida professor-o‘qituvchilarning dars mashg‘ulotlari holati o‘rganiladi. Darsning sifati va samarasiga e’tibor qaratiladi. O‘rganish natijalari bo‘yicha takliflar tayyorlanadi, rektorga (kengashga) taqdim etiladi | Darsning sifati va samarasiga e’tibor qaratiladi. O‘rganish natijalari bo‘yicha takliflar tayyorlanadi, rektorga (kengashga) taqdim etiladi. Dars mashg’ulotining baholanish jarayonida ekspertlar tashkil etiladi. Mashg‘ulotlar o‘z vaqtida boshlanishiga qaramasdan talabalarning darslarga kechikib kelishi fan o‘qituvchilari va kuzatuvchilar tomonidan e’tirof etildi. Yakka darslarda ayrim pedagoglarning yakka dars uchun belgilangan jurnallarni o‘z vaqtida to‘ldirilish holati yaxshi emasligi aniqlandi.<br>Takliflar: |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | - barcha professor-o‘qituvchilar ta’lim sifatini yanada oshirish uchun nazariy va amaliy mashg‘ulotlar vaqtida ko‘rgazmali vositalar, AKT (proyektor, noutbuk, DVD pleyer va b.q)lardan somarali foydalanishlarini nazratga olish;<br>- barcha fan o‘qituvchilari dars boshlanishidan 3-5 daqiqa oldin kelishi va mavzu bo‘yicha qo‘shimcha materiallarini dars davomida emas, darsga qadar talabalarga yetkazish;<br>darslarga surinkali kechikib kelayotgan talabalar bilan alohida tarbiyaviy ishlarni darsdan so‘ng olib borish, qoldirgan darslarni qayta topshirishlarini nazoratga olish. |
| **6.** | Kafedralarda o‘quv yuklamalarining professor-o‘qituvchilar o‘rtasidagi adolatli taqsimoti, professor-o‘qituvchilar tarkibining to‘g‘ri shakllantirilganligi, shaxsiy ish rejalarining belgilangan tartibda rasmiylashtirilganligi va kafedralarning o‘quv meyoriy hujjatlarining holatini o‘rganish | O‘quv yuklamalarining professor-o‘qituvchilar o‘rtasida taqsimoti kafedralar kesimida belgilangan tartibga rioya etilishi va adolatli tamoyillarga asoslanganligi o‘rganiladi, professor-o‘qituvchilar tarkibining to‘g‘ri shakllantirilganligi ularning tayanch ma’lumotlarining fanlarga mosligi tahlil etiladi, shaxsiy ish rejalarining belgilangan tartibda rasmiylashtirilganligi va tasdiqlanganligi, kafedralarning o‘quv meyoriy hujjatlarining yangi o‘quv yiligi tayyorgarlik holati o‘rganilib, baho beriladi. | O‘quv yuklamalarining professor-o‘qituvchilar o‘rtasida taqsimoti kafedralar kesimida belgilangan tartibga rioya etilishi va adolatli tamoyillarga Oliy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchilar tarkibining o‘quv, ilmiy-metodik, ilmiy tadqiqot, tashkiliy-metodik, ma’naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlar yuklamasini aniqlash qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi tasdiqlangan qoidalar asosida qayta ko‘rib chiqilib, tasdiqlash taklifi berildi. |
| **7.** | Professor-o‘qituvchilar, doktorantlar va talabalar ilmiy ishlarining yuqori impakt-faktorga ega bo‘lgan ilmiy jurnallarda ilmiy makolalarini chop etilishini va iqtiboslik holatlarini o‘rganish | Ilmiy daraja va ilmiy unvonga da’vogar bo‘layotgan har bir pedagoglarni ilmiy maqolalari yuqori impakt-faktorga ega bo‘lgan jurnallarda chop etilish holati kafedralar kesimida tahlil etiladi. | 2023 - O’quv yilida Ilmiy daraja va ilmiy unvonga da’vogar bo‘layotgan har bir pedagoglarni ilmiy maqolalari yuqori impakt-faktorga ega bo‘lgan jurnallarda chop etilish holati kafedralar kesimida tahlil etiladi. |
| **8.** | Professor-o‘qituvchilar shaxsiy ish rejalarining yarim o‘quv yili yakunlari bo‘yicha bajarilishini o‘rganish. | Professor-o‘qituvchilar shaxsiy ish rejalarining yarim o‘quv yili yakunlari bo‘yicha bajarilish holati tahliliy | Har yarim yillikda professor -o’qituvchilar shaxsiy ish rejalaridagi soatlar bajarilishi holati muntazam tekshirilib boriladi, hamda rektorlik soatida hisobot |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | o‘rganiladi, natijalari bo‘yicha institut rektoriga ma’lumot taqdim etiladi | berib boriladi. |
| **9.** | O’zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarining fanlar bo‘yicha asosiy o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlanganlik darajasini ARM va kafedralar kesimida o‘rganish. | Institut ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv rejasidagi fanlarning zamonaviy o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlanganlik holatining (jumladan tillar kesimida) ARM fondidagi elektron adabiyotlar bazasini nazoratdan o‘tkazish.<br>ARM tizimidagi aniqlangan kamchilik va muammolarni bartaraf etish maqsadida OTM rahbariyati va tegishli bo‘limlar bilan hamkorlikda bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan reja ishlab chiqiladi, uning ijrosi nazoratga olinadi. | Institut professor-o‘qituvchilari tomonidan oxirgi besh yilda ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarni o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlash maqsadida quyidagi ishlar amalga oshirilgan: 2018-yilda 4 ta darsdik, 55 ta o‘quv qo‘llanma, 2019-yilda 13ta darslik, 38 ta o‘quv qo‘llanma, 2020-yilda 13 ta darslik, 30 ta o‘quv qo‘llanma, 2021-yilda 9 ta darslik, 45 ta o‘quv qo‘llanma, 2022-yilda 9 ta darslik, 32 ta o‘quv qo‘llanma, 2023-yilda 17 ta darslik, 35 ta o ‘quv qo’llanmalar yaratilib OO‘MTV ning muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan mualliflik guvohnomalari olinib tegishli tartibda nashrdan chiqarilgan. O‘quv adabiyotlari nashri uchun oxirgi besh yilda 1mlrdan so‘mdan ortiq ajratilgan. Hozirgi vaqtda institut negizida 25 ta bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va 19 ta magistratura mutaxassisliklari faoliyat olib bormoqda ularning adabiyotlar bilan ta’minlanganlik holati 98,5 foizni tashkil etadi. |
| **10.** | 2023 yil bo‘yicha O‘zbekiston OTMlari reytingi uchun institut hujjatlarini tayyorlash va Oliy ta’lim va innovatsiyalar vazirligiga taqdim etish | 2023-yil kalendar yili bo‘yicha milliy OTMlar reytingida institut o‘rnini aniqlash maqsadida Ta’lim inspeksiyasiga 29 ta jadvaldan iborat ma’lumot va har bir jadvalning har bir bandi bo‘yicha asoslar taqdim etish | 2023- yil Institut reytingini bo’lim tomonidan Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligiga taqdim qilishga tayyor holatga keltirildi. |

Izoh: *Ushbu ish rejaga o‘quv yili davomida yuqori tashkilotlardan kelgan vazifalar ijrosiga ko‘ra qo‘shimchalar kengash qaroriga ko‘ra kiritilishi mumkin.*

**Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i** **D.Irisboyeva**